

**"MONEY AND BANKS" COURSE**  
**Topic -3: MONEY CIRCULATION AND ITS STRUCTURE**

**«PUL VA BANKLAR» FANI**  
**Mavzu -3: PUL MUOMALASI VA UNING TARKIBI**

**Reja:**

- 3.1. Pulga bo'lgan talab va unga ta'sir etuvchi omillar**
- 3.2. Pul aylanish tezligi, pul mul'tiplikatori**
- 3.3. Monetizasiya koeffisienti**
- 3.4. Pul massasi va pul agregatlari**

**3.1. Pulga bo'lgan talab va unga ta'sir etuvchi omillar**

Pul bozorida pulga talab va taklif aniqlanadi. Pul bozori-bu pulga bo'lgan talab va uning taklifi foiz stavkasi darajasini, pulning "narxlarini" belgilaydigan bozor, bu pulga talab va taklifning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan institutlar tarmog'idir.

Pul bozori – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo'lib unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo'lgan talab va taklif ta'sirida uyg'unlashtiriladi.

Pul bozorini tarkibiga quidagi bozorlar kiradi:

- Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) bozori;
- Kredit resurslari bozori (muddati 1 kundan 1 yilgacha bo'lgan qisqa muddatli kreditlar);
- Banklararo depozitlar bozori.

Pul bozorini ob'ektlari bo'li pul resurslari hisoblanadi. Pul resurslari o'z navbatida pul va qarz qimmatli qog'ozlardan tashkil topadi. Qarz qimmatli qog'ozlarga quyidagi qimmatli qog'ozlarni kiritish mumkin bo'ladi. Ular quyidagilar: Obligatsiyalar, veksellar, jamg'arma va depozit sertifikatlari, G'aznachilik majburiyatlar va boshqalar

Shunday qilib, pulga bo'lgan talab - bu ma'lum bir pul zaxirasiga bo'lgan ehtiyoj. Bu aholi va firmalar likvid shaklda, ya'ni naqd pul va chek depozitlari shaklida saqlamoqchi bo'lgan to'lov vositalarining soni sifatida aniqlanadi.

Pulga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu:

- Fisherning pulga bo'lgan talab nazariyasi
- Keynsning likvidlikni afzal ko'rish nazariyasi.

Pul taklifi quidagi omillarga boglik<sup>1</sup>:

1. davlat budjetining defisitiga;
2. axolini pul daromat darajasiga (Абдуллаева, 2003, b.169).

Pul tarkibiy qismlari nuqtayi nazaridan naqd pullar – metall va qog'oz pullardan iborat bo'ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5-7 foizini, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 30 – 35%ni tashkil qilgan. Monetaristik yondashuvga ko'ra Fisher tenglamasida Transaksion deb nomlanadigan pulga talab hisobga olinadi. Bu talab pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi. Pulga Transaksion talab – tovar va xizmatlarni sotib

olishga xizmat qilishi sababli, u bitimlar uchun pulga talab ham deyiladi. Shunday ekan, pulga talab – bu bitimlar uchun (Pt) va aktivlar tomonidan pulga talab (Pa) ni o'z ichiga oladi. Aholi o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida yetarlicha pulga ega bo'lishi zarur. Korxonalarga ish haqi to'lash, material, yoqilg'i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo'ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo'lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal YaIM hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni u nominal YaIM qiymatiga mutanosib ravishda o'zgaradi. Aholi va korxonalarga ikki holda bitim uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda. Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishi mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo'ladi.

### 3.2. Pul aylanish tezligi, pul mul'tiplikatori

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob'ektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar-pullarga bo'linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi. Shunday qilib, pul muomalasi jarayonlaridan pul aylanishi tushunchasini ajratib olish mumkin.

Pul aylanishi - naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jarayonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi pul aylanishi metall pullar muomalasi sharoitidagi kabi qiymatli emas, chunki pul belgisining qiymati nominaldan ancha kam va uning ahamiyati bo'lmasligi mumkin (Mardonova, 2021, bb. 65-68).

Mamlakatda pulning jadal aylanishi oldi-sotdi bitimlarining ko'pligi bilan bog'liq.

Pul muomalasi tezligi-xizmatlarni, tayyor tovarlarni sotib olish uchun mablag'lardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan pul aylanmalarining o'rtacha yillik sonining ko'rsatkichi. Iqtisodiyotda aylanayotgan pullar davlatning markaziy emissiya banki faoliyati natijasida yaratiladi.

Pullarni yaratish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi (Рашидов, 2009, bb.40-41). Pullarni yaratish jarayonining **birinchi bosqichida** markaziy emissiya banki asosiy yo'nalishlar bo'yicha, shu jumladan, hukumatga, tijorat banklari, chet mamlakatlar, alohida korxonalarga bevosita kreditlarni berish Yo'li bilan (agar amaldagi qonunlarda shunday tartib nazarda tutilgan bo'lsa), shuningdek, rasmiy oltin va valyuta zaxiralarini ko'paytirish orqali o'z aktivlarini ko'paytiradi.

Markaziy emissiya banki aktivlarining ko'paytirilishi ayni bir vaqtda uning passivlarining ham tegishlicha o'sishini anglatadi, ya'ni pul bazasining tashkil etilishiga olib keladi.

Pul bazasi muomaladagi naqd pullardan, shuningdek, tijorat banklarining mamlakat Markaziy bankidagi majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralaridan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining zaxiralari deganda, mabodo bank omonatchilari to'satdan katta miqdordagi to'lov talablarini qo'ygani holda, uning tezkorlik bilan muomalaga kiritadigan aktivlari tushuniladi. Tijorat banklarining Markaziy bankdagi zaxiralari majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan tarkib topadi. Majburiy zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi omonatlari (depozitlari)ning qonuniy tartibda belgilab qo'yiladigan eng kam normasi tushuniladi.

Majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy, ortiqcha) zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida majburiy zaxiralarning belgilangan normasidan ortiq miqdorda saqlanayotgan mablag'lari tushuniladi.

Tijorat banklari majburiy bo'lmagan zaxiralar miqdorlarini o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishi mumkin. Shu munosabat bilan e'lon qilinadigan statistikada pul bazasini belgilashda bunday zaxiralarni muomaladagi naqd pullar tarkibida yuribdi deb hisoblab, ular ajratib ko'rsatilmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul bazasining quyidagicha ta'rifini beradi:

Pul bazasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga chiqargan naqd pullar va tijorat banklarining majburiy zaxiralarini o'z ichiga oladi.

Pullarni yaratish jarayonining **ikkinchi bosqichida** tijorat banklari o'z mijozlari – korxonalar, tashkilotlar, aholini kreditlash uchun markaziy emissiya bankidan olgan kreditlardan foydalanadiki, bu pul massasining yaratilishiga olib keladi.

Pul muomalasi tezligi (ingl. pul tezligi, aylanishning tezligi) - ma'lum vaqt ichida tovar va xizmatlarni sotib olish uchun pul birligi ishlatiladigan o'rtacha chastotasi.

Pul muomalasi tezligi ko'p jihatdan ma'lum bir pul massasi uchun iqtisodiy faoliyat hajmiga bog'liq. Vaqt davri ko'rsatilgan bo'lsa, pul tezligi raqam bilan ifodalanadi.

Pul muomalasi tezligi-yil davomida pul birligi tomonidan amalga oshiriladigan aylanmalarning o'rtacha soni.

Pul muomalasi tezligi-muomaladagi pul birligi yiliga necha marta tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflanishini ko'rsatadigan raqam.

Muomaladagi pul massasining ko'pligi pulning qadsizlanishiga va inflyatsiyaga olib keladi, tanqislik esa iqtisodiyotning sekinlashishiga olib keladi, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash muammosi har doim muhim o'rinni egallagan.

Miqdoriy nazariya pul narx darajasining formula bilan ifodalangan pul massasiga bog'liqligini aniqladi, yani

$$MV = PQ,$$

bu erda:

**M**-pul birliklarining massasi;

**V**-pul tezligi;

**P**-mahsulot narxi;

**Q**-taqdim etilgan tovarlar soni bozor.

Ushbu formulani o'zgartirib, quyidagilarni aniqlash mumkin pul tezligi:

$$V = PQ/M$$

Zamonaviy amaliyotda pul aylanish tezligi **V** quyidagicha hisoblanadi:

$$V = YAIM/M2,$$

**YAIM** – yalpi ichki mahsulot;

**M2** – pul agregati o'rtacha yillik ko'rinishda.

Pul massasi tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijozlar hisobvaraqlaridagi pullar qoldiqlaridan iborat bo'ladi (Рашидов ва bosh., 2009, b.45).

**Pul yoki bank multiplikatori** (lat. multiplicare-ko'paytirish) — pul massasining (M2) pul bazasiga (M0) nisbatiga teng bo'lgan va kredit operatsiyalari tufayli aylanmada

pul o'sishini tavsiflovchi koeffitsient. Ushbu ko'rsatkichning nazariy maksimal qiymati (1/R) ortiqcha normaning teskari qiymati deb hisoblanadi (Абдурахманова, 2021, bb.57-58).

**Pul multiplikatori** - pul tizimidagi depozitlarning bir pul birligiga ko'payishi yoki kamayishi natijasida pul massasining necha marta ko'payishi yoki kamayishini ko'rsatadigan son koeffitsienti.

Pul multiplikatori ikki xil ko'rinishga ega– kredit multiplikatori va depozit multiplikatori sifatida harakat qiladi.

Kredit multiplikatorining mohiyati shundan iboratki, ko'paytirish faqat iqtisodiyotni kreditlash natijasida amalga oshirilishi mumkin, ya'ni kredit multiplikatori ko'paytirishning dvigatelidir. Banklar qarz berish orqali pul ishlashadi. Mijozlar tomonidan qo'yilgan mablag'lardan foyda olish jarayoni kreditni kengaytirish yoki kreditni ko'paytirish deb ataladi. Agar mijoz o'z hisobidan pulni olib qo'ysa va depozitlar miqdori kamaysa, unda teskari jarayon - kreditni siqish sodir bo'ladi.

O'z navbatida depozit multiplikatori ko'paytirish ob'ekti - tijorat banklarining depozit hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini aks ettiradi.

*Мисол*

	Bank aktivi	Bank passivi	
	100	800	5-Ishtirokchi
6-Ishtirokchi	700		
	100 tanga oltin	900 tanga oltin	3-Ishtirokchi
4-Ishtirokchi	800 tanga oltin		
	100 tanga oltin	1000 tanga oltin	1-Ishtirokchi
2-Ishtirokchi	900 tanga oltin		

Bank mul'tiplikatori pullarning bir tijorat bankidan boshqa tijorat bankiga harakati davrida tijorat banklarining depozit hisobvaraqlaridagi pullarning ko'payishi jaraYonidan iborat. Pul massasini ko'paytirishning ushbu mexanizmi faqat ikki darajali bank tizimi (markaziy va tijorat banklari) amal qiladigan va to'liq faoliyat yuritadigan sharoitda ishlashi mumkin. Bank mul'tiplikatori mexanizmining amal qilishi jaraYonida banklar mijozlarining hisobvaraqlarida pul mablag'larining to'planishi yuz beradi. Ushbu mexanizmning amal qilishi intensivligini hisobkitob qilish uchun bank mul'tiplikatori koeffitsientini hisob-kitob qilish formulasi qo'llaniladi:

$$\text{bank mul'tiplikatori koeffitsientini} = 1-R \times 100\%$$

bunda:

R – markaziy bank belgilab qo'ygan majburiy zaxiralash normasi.

**Bank mul'tiplikatori mexanizmi** quyidagi usulda faoliyat yuritadi: Markaziy bank qandaydir tijorat bankiga kredit beradi va o'z navbatida ushbu tijorat banki o'zining mijoziga kredit beradi. Mijoz ushbu taxminan 10 ta birlikdan iborat kreditdan o'z majburiyatlarini to'lash uchun foydalanadi. Pul mablag'lari boshqa iqtisodiy sub`ektga borib tushadi va u bu mablag'larni o'zining tijorat bankidagi depozitli hisobvarag'ida joylashtiradi. Bankning ikkinchi mijozining hisobvarag'ida 10 ta birlik mavjud. Bank ushbu summadan majburiy zaxiralash fondiga muayyan foizni ajratadi.

Bankda, masalan, erkin mablag'larning 8 ta birligi qoladi va u ushbu mablag'larni yana kreditga beradi. Bu operatsiya faqat shunday farq bilan takrorlanadiki, to'rtinchi mijozning hisobvarag'ida endi 8 ta birlik mavjud bo'ladi. Bunday operatsiya muayyan muddat davomida takrorlanadi va natijada mijozlarning banklardagi hisobvaraqlarida Markaziy bank birinchi marta bergan bergan 10 ta birlikdanoshadigan summa (10+8+ va hokazo) paydo bo'ladi. SHunday qilib, mazkur mexanizm iqtisodiyotga taqdim etilgan pul massasini muayyan summagacha naqd pulsiz shaklda ko'paytirishga imkon beradi, ushbu holatda belgilab qo'yilgan majburiy zaxiralash normasi qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning aylanishi shunchalik tez tugaydi va bu mexanizmning amal qilishi natijasida qo'shimcha ravishda iqtisodiyotda shunchalik kam miqdordagi pullar paydo bo'ladi.

Pul massasi bilan pul bazasi o'rtasidagi nisbat pul mul'tiplikatori deb ataladi.

### **Pul multiplikatori = Pul massasi / Pul bazasi**

Tijorat banklarining o'z mijozlariga (iqtisodiyotga) kreditlari bilan Markaziy bankning tijorat banklariga kreditlari o'rtasidagi nisbat kredit mul'tiplikatori deb ataladi.

Muomaladagi pullar miqdorining o'sishi to'raligicha Markaziy bankning kredit emissiyasi bilan oldindan belgilanadi va har qanday Yo'nalish bo'yicha muqarrar tarzda pul bazasining o'sishiga va mul'tiplikatorning ta'sirida pul massasining ko'payishiga olib keladi. Pul massasining ko'payishi inflyatsiya sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.

Naqd pul mablag'larining emissiyasi emissiyaning naqd pulsiz shakldagi pullar emissiyasidan kelib chiqadigan ikkilamchi turidir. Emissiyaning bu turi Markaziy bank tomonidan o'tkaziladi. Emissiyaning ushbu shakli markazlashtirilmagan shaklda bo'ladi va mintaqaviy MTMLari orqali amalga oshiriladi. Ushbu kassalar qabul qilgan mablag'larning ortiqcha hajmi, ya'ni MTM bergan pullar miqdori tashkilotlar va banklarning MTMga qaytargan mablag'lar summasidan ortiq bo'lishi kerak. Naqd pullar depozit hisobvaraqlarida turgan naqd pulsiz shakldagi pul mablag'laridan hosil bo'ladi va tijorat bankining bank mul'tiplikatori mexanizmining amal qilishi natijasida yaratgan pul massasining tarkibiy qismidan iborat bo'ladi (Mardonova, 2021, bb.40-41).

Pul aylanishi pul mablag'lari harakatining muayyan yo'llaridan tarkib topadi:

1. mablag'larning markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bunday harakat pul mablag'lari emissiyasi jaraYonlari va tijorat banklari mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash fondiga ko'chirilishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining kreditlash jaraYonlari munosabati bilan pul mablag'larining ko'chirilishini ham shunga kiritish mumkin;

2. pul mablag'larining tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bu holda ushbu banklarning mijozlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq pul ko'chirishlar yoki tijorat banklarining o'zaro kreditlashlari nazarda tutiladi;

3. firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi harakati tovarlar aylanishi va bunday tovarlar aylanishidagi, shuningdek, o'zaro talablarni hisobga olishdagi haq to'lash jaraYonlari bilan bog'liq;

4. banklar, firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu sub'ektlar o'rtasidagi harakati asosan kreditlash va qarz majburiyatlarini hisobga olish operatsiyalari, shuningdek, pul mablag'larini saqlash va ko'chirishga doir operatsiyalar bilan bog'liq;

5. banklar va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari iste'molchilik kreditini berish va pul mablag'larining aholining daromadlarini saqlash va ko'paytirish maqsadlaridagi harakatiga doir faol jaraYon sababli ko'chiriladi;

6. firmalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi harakat. Pullar harakatining bu Yo'li mablag'larning tovar aylanishi operatsiyalariga haq to'lash va uy xo'jaliklarining xodimlar mehnatiga haq to'lashi munosabati bilan ko'chib yurishidan iborat bo'ladi;

7. banklar va moliya institutlari o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy munosabatlar sub`ektlari o'rtasidagi harakati o'zaro kreditlash operatsiyalari va iqtisodiy foyda olishga Yoki uchinchi sub`ektlarning muayyan operatsiyalarini rasmiylashtirishga Yordam beruvchi boshqa moliyaviy harakatlar doirasida amalga oshiriladi;

8. moliya institutlari va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining bu holdagi harakati aholining, odatda, o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida muayyan moliya operatsiyalarini bajarishi bilan bog'liq;

9. jismoniy shaxslar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari harakatining bu Yo'li eng sezilmaydigan, lekin pul mablag'larining qayta taqsimlanishi tizimidagi eng muhim Yo'llardan biri hisoblanadi, chunki u mablag'larning aholi o'rtasida ko'chib yurishidan iborat. Odatda, bunday ko'chib yurishning maqsadi maishiy masalalarni hal etish va o'z oilasi a`zolari farovonligining muayyan darajasini tutib turishdir.

Pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat qilish jarayonidir.

Pul-to'lov aylanishi pul aylanishining bir qismi bo'lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat'i nazar to'lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Pul muomalasining tezligi pul aylanishining muhim tavsifnomasi hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, muayyan vaqt davomida (masalan, yil davomida) har bir pul birligi aylanishining soni qanchalik ko'p bo'lsa, iqtisodiyotning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori shunchalik kam bo'ladi.

Amalda pul massasi muomalasining tezligi daromad muomalasining tezligini ko'rsatadi.

### 3.3. Monetizasiya koeffisienti

Bretton-Vuds pul tizimi qulagandan keyin, pul massasi miqdorini aniqlashning eng dolzarb masalaga aylandi. Buning asosiy sababi valyuta kursining to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib qolganligidir. Agar ilgari pul muomalasi oltin hisobiga ta'minlangan bo'lsa, hozir pul muomalasi ommaviy Markaziy bank tomonidan tartibga solinandi. Shunday qilib, tartibga solish pul muomalasi davlat siyosatining funksiyasiga aylandi (Балашев, Бабасева, Баранчеев & Гаджиалиева, 2021).

Iqtisodiyotni monetizatsiya koeffitsienti - pul massasining (M2 jami - naqd pul, cheklar, talab qilib olinmagan depozitlar va korxonalar va aholining banklardagi naqd pul depozitlari) yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatiga teng ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich. iqtisodiyotning pul bilan ta'minlanganlik darajasi haqida tushuncha beradi.

Milliy iqtisodiyotni monetizatsiya qilish ko'rsatkichi, aylanish tezligining teskarisi pul nisbati sifatida hisoblangan pul M2 agregati Yaimga foiz sifatida (Хачатрян & Базилевич, 2016).

$$K = M2/YAIM \times 100 \%$$

**K** – monetizasiya koefficienti


**YAIM** – yalpi ichki mahsulot;

**M2** – pul agregati o'rtacha yillik ko'rinishda.

Ba'zi iqtisodchilarning fikriga ko'ra, sun'iy ravishda (ya'ni, davlat tomonidan, bozordan tashqari choralar bilan) monetizatsiya koeffitsientini oshirish mumkin emas. Uning o'sishi milliy iqtisodiy siyosatga ishonchning mustahkamlanishi, iqtisodiy o'sish, milliy moliya tizimidagi jamg'armalar darajasining oshishi fonida qayd etilmoqda.

Monetizatsiya koeffitsienti iqtisodiyotning pul massasiga bo'lgan ehtiyojini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Bu sizga tovarlar va bitimlar muomalasi uchun chiqarilgan pul etarli yoki yo'qligini aniqlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotni monetizatsiya koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, shuncha yaxshi. Demak, bu ko'rsatkichning o'sishi iqtisodiyotning harakatchanligi oshganidan dalolat beradi. Singapur, Gonkong, Shveysariya, Yaponiya, Xitoy, Buyuk Britaniya bu koeffitsientning eng yuqori qiymatlari bilan ajralib turadigan dunyoning moliyaviy markazlari bo'lib, ularning qiymati 200% ga etadi.



**1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni monetizatsiya qilish koeffitsienti darajasi** (Балашев, Бабасева, Баранчев & Гаджиалиева, 2021).

Iqtisodiyotni monetizatsiya qilishning yuqori darajasi moliyaviy sektori yaxshi rivojlangan mamlakatlar uchun xosdir. Monetizatsiyaning past darajasi pul va shunga mos ravishda investitsiyalarning sun'iy tanqisligini keltirib chiqaradi. Bu iqtisodiy o'sishni cheklaydi. Shu bilan birga, rivojlanmagan moliya tizimida iqtisodiyotni pul bilan to'ldirish faqat inflyatsiyaning o'sishiga va shunga mos ravishda iqtisodiyotning monetizatsiyasining yanada pasayishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, qo'shimcha pul massasi iste'mol bozoriga kirib, yalpi talabni oshiradi va taklif darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Monetizatsiya darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir. Bu ishsizlik, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, lekin monetizatsiyaga ham teng darajada yokoridagi ko'rsatkichlar ta'sir qiladi (Бердышев & Сопов, 2022).

### 3.4. Pul massasi va pul agregatlari

Pul agregatlari pul massasini ko'rsatkichlaridan iborat. Pul agregatlari statistikada pullar harakatining muayyan sanaga bo'lgan Yoki muayyan vaqt davridagi o'zgarishini tahlil etish uchun qo'llaniladi.

Pul agregatlarini qurish uchun moddiy ne'matlarning likvidligi darajasiga qarab ularning bosqichma-bosqich joylashtirilishi asos qilib olingan. Moddiy ne'matlarning

likvidiligi deganda ushbu ne`matlarning tez va unchalik ko'p zararlargacha pulga aylanishi qobiliyati tushuniladi. Moddiy ne`matlarning likvidiligi vaqt bilan o'lchanadi. Moddiy ne`matni pulga aylantirish uchun qanchalik kam vaqt talab qilinsa, uning likvidiligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Naqd pullar mutloq likvidlikka ega, chunki ularni pulga aylantirish uchun zarur bo'ladigan vaqt nulgacha tengdir.

Muomaladagi naqd pullar Mo agregatini tashkil etadi. Naqd pullar banknotalar, g'azna pattalari (biletleri) (agar mamlakatda ikkita emissiya markazi mavjud bo'lsa) va metall tangalardan iborat bo'ladi. Metall tangalar naqd pullarning juda kam qismini (rivojlangan mamlakatlarda 2%-3% ni) tashkil qiladi. Ularni keyinchalik yombiga aylantirib sotishga yo'l qo'ymaslik uchun odatda arzon metallardan zarb qilinadi. SHuning uchun tanganing real qiymati nominal qiymatidan birmuncha pastroq bo'ladi. Mo agregatini pul bazasidan farqlash zarur. Pul bazasi tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari kiradi. Mo agregatining tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari rasman kirmaydi.

Mo agregatiga kamroq likvidli mablag'larni izchillik bilan qo'sha borish bilan M1, M2, M3... MN gacha bo'lgan agregatlar olinadi.

Pul agregatlarining soni va tarkibi mamlakat kredit tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishiga hamda uning moliya bozorlarining rivojlanish arajasiga bog'liqdir.

Pul massasi alohida elementlardan iborat bo'lib, bunday elementlar pul massasining holatini baholash jarayonida qo'llaniladi va uni tartibga solish uslublari va hajmlarini birmuncha aniqroq tanlashga imkon beradi.

Ushbu asosan to'lovning turli shakllarda ifodalangan u yoki boshqa vositalarini hisobga olish asosida ajratiladi. Odatda, har bir agregat nominal raqamga ega bo'ladi. Raqamning o'sib borishi bilan ushbu agregat yordamida hisobga olinadigan vositalar soni ham oshadi. Shunday qilib, katta sonli koeffitsientli agregat kichik indeksli (raqamli) agregatlarda hisobga olingan barcha pul mablag'larini o'z ichiga oladi.

Quidagi pul agregatlari mavjud:

**M 0** = muomaladagi naqd pul mablag'lari yigindisi.

**M 1** = M0 mablag'lari (ya'ni, Mo agregati), korxonalarining hisob-kitob, joriy va maxsus hisobvaraqlaridagi mablag'lari, sug'urta kompaniyalari mablag'lari, aholining tijorat banklaridagi «talab qilib olingungacha» hisobvaraqlaridagi depozitlari.

**M 2** = M 1 agregati + aholining banklardagi muddatli omonatlari.

**M 3** = M 2 agregati + davlat zaYomlarining sertifikatlari va obligatsiyalari.


**M 4** = M 3 agregati + xorijiy valyutadagi depozitlar.

Shuni hisobga olish kerakki, bunday agregatlarning belgilanishi turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Ushbu agregatlar o'z holicha mamlakat to'lov oboroti sohasida yuz beradigan jarayonlar, jamg'armalar hajmlari, shuningdek, ushbu jamg'armani amalga oshirishda qo'llanilgan vositalarning sonli ifodasi vositalari hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning joriy holatini belgilashga imkon beradi va keyingi vaziyatni prognoz qilishda ko'maklashadi (Омонов & Қоралиев, 2012, pp. 112-113).

Pul massasi agregatlari, iqtisodiyot monetizatsiyasi koeffitsientini hisobga olish yordamidagi hisob-kitobning eng ma'qul usulidir. Monetizatsiya koeffitsienti iqtisodiyotning pullar bilan ta'minlanishi darajasi yoki tovar aylanishining to'lov vositalari bilan ta'minlanishi darajasini aks ettiradi. Bunday koeffitsient M2 pul agregati summasi va ushbu iqtisodiyotda mavjud bo'lgan xorijiy valyutadagi depozitlarning YAMI hajmiga o'zaro nisbati sifatida hisoblab chiqiladi.


Ushbu koeffitsientni hisob-kitob qilishda suratga birdaniga M2 agregatini va xorijiy valyutadagi depozitlarni o'z ichiga oladigan M4 pul agregatini qo'yish qulayroq bo'ladi. Ushbu koeffitsient mohiyati idealda birga teng bo'ladi. Shunga qaramasdan, 0,7 yoki 0,8 darajasidagi natijalar yo'l qo'yilishi mumkin mohiyatlar deb hisoblanadi.

O'zbekistondagi pul bozori holatiga oid ba'zi statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqaylik. Masalan, pul bozorida pul resurslarining tarkibi.



**1-Rasm. O'zbekistonda pul massasini tarkibi (%)** (manba: <https://cbu.uz>).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, naqd pulning katta qismi aholi qo'lida qolib, uning taxminan 1/4 qismi bank tizimiga qaytadi. Bu banklarga bo'lgan ishonch ortib, bankdan tashqari pul aylanmasining hajmini qisqarganidan dalolat beradi.



**2-Rasm. O'zbekistonda M2 pul massasini tarkibi (%)** (manba: <https://cbu.uz>).

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, strukturada xorijiy valyuta o'sish dinamikasiga ega. Bu holat ijobiy tendentsiya sifatida qaralishi mumkin, chunki O'zbekistonning tashqi qarzi anchagina katta bo'lib, Yaimning 40 % ga yaqinlashib ko'lgan bir davrda, ushbu holat ijobiy deb ko'rsatish mumkin.


1-jadval.

O'zbekistonda naqd pul xarakati (mlrd. so'm) (manba: <https://cbu.uz>).

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
<b>Umumiy naqd pullar</b>	<b>10 733,08</b>	<b>13 255,73</b>	<b>20 062,52</b>	<b>23 122,29</b>	<b>26 310,32</b>	<b>27 798,77</b>	<b>28656,90</b>
<b>Bankdan tashqari naqd pullar</b>	<b>10 655,10</b>	<b>13 208,73</b>	<b>19 448,88</b>	<b>22 164,21</b>	<b>24 246,01</b>	<b>24 920,35</b>	<b>25418,4</b>

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, naqd pullarning umumiy miqdori o'sish tendensiyaga ega bo'lib, o'rganilayotgan davr ichida, yani 2015 yilda 2021 yillar davomida naqd pullarning hajmi 2,7 marta oshgan. Bankdan tashqari naqd pullarni aylanish hajmi 2,4 marta ko'paygan. Vas hu bilan aytish mumkin, bankdan tashqari naqd pullarni aylanishi 2015 yilda 99,3 % tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda esa, ushbu ko'rsatkich 88,7 tashkil qilgan. Bu esa, shundan dalolat beradiki, bank tizimi o'rqali naqd pullarni aylanish hajmi deyarli oshgan.

harakatining asosiy qismi bankdan tashqari aylanmada sodir bo'ladi. Bu naqd pul aylanishini yanada yaxshilash zarurati mavjudligini ko'rsatadi.



3-rasm. Aholi depozitlarining iqtisodiyotda tutgan o'rni (%) (manba: <https://cbu.uz>).

3-rasmdan kurish mumkin, O'zbekiston aholisining omonatlari bo'yicha ba'zi statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. O'zbekiston iqtisodiyotida aholi omonatlarning

tutgan o'rniga baho beramiz. Rasmda aholi depozitlari asosiy kursatkichlarga, yani YAMga nisbatan shuningdek bank resurslariga nisbatan juda kamligini kursatmokda.

### Tayanch iboralar:

Pul talabi, pul taklifi, pul aqregatlari M1, M2, M3,..MN, pul massasi, pul bazasi, pul aylanish tezligi, pul multiplikatori, monetizasiya koeffisienti, pul emissiyasi.

### Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Pulga bo'lgan talab va unga ta'sir etuvchi omillar.
2. Pul aylanish tezligi kanday aniklanadi?
3. Pul mul'tiplikatori kanday aniklanadi?
4. Monetizasiya koeffisienti va uni xisoblash metodikasi.
5. Pul massasi va pul agregatlari.
6. M1 agregatining tarkibi.
7. M2 agregatining makroiqtisodiy jarayonlarga ta'siri.
8. M3 agregatining tarkibi.
9. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga muvofiq M0 - pul agregati holatini qanday baholaysiz?
10. Aholi omonatlari sohasida qanday tendentsiya kuzatilmoqda

### Foydalangan adabiyotlar

1. Рашидов, О.Ю., Тоймухамедов, И.Р., Алимов, И.И., & Тожиев, Р.Р. (2009). Пул, кредит ва банклар: Дарслик. ТДИУ.
2. Балашев, Н.Б., Бабасева, А.А., Баранчеев, М.А., & Гаджиалиева, З.Р. (2021). Монетизация ВВП и ее влияние на макроэкономические показатели. Научно-методический учебный журнал "Концепт", 01 (январь), [0,5 п. л.]. <http://e-koncept.ru/2021/213002.htm>.
3. Бердышев, А.В., & Сопов, Д.К. (2022). Исследование динамики коэффициента монетизации экономики России и его влияния на макроэкономические показатели. Вестник университета, 9, 145–152.
4. Шомуродов, Р.Т. (2015). Пулга бўлган талабнинг назарий ва амалий масалалари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали, 5. [http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/31\\_R\\_%D0%A2\\_Shomurodov.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/31_R_%D0%A2_Shomurodov.pdf)
5. Омонов, А.А., & Қоралиев, Т.М. (2012). Пул, кредит ва банклар: Банк иши таълим йўналиши талабалари учун дарслик. Молия.
6. Хачатрян, В.Г., & Базилевич, А.Р. (n.d.). Уровень монетизации экономики как основной показатель достаточности денег в экономике. Электронный научно-практический журнал «Экономика и менеджмент инновационных технологий». <https://ekonomika.snauka.ru/2016/08/11545>
7. cbu.uz – сайт Центрального банка.